

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TURIZMNING HUDUDIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA JOYLASHTIRISH RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH

Jumayev Akbar Mahmudovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Statistika” kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: jumayevabduakbar@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8935-032X15:49

Annotatsiya. *Maqolada turizm yordamchi hisobi ko‘rsatkichlari O‘zbekistonda faqat respublika bo‘yicha shakllantirilishi sababli turizmning hududlar iqtisodiyotidagi o‘rnini baholab bo‘lmasligi muammosi ko‘rib chiqilgan. Muammoni hal etish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm yalpi qo‘shilgan qiymatini “yuqoridan pastga” yondashuv asosida kalibrlash koeffitsiyenti orqali hududlarga taqsimlash, turizmning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini aniqlash, ma’lumotlar taqsimotiga asoslangan obyektiv og‘irliklar bilan viloyatlar turizm salohiyati indeksini hisoblash hamda joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini ma’lumotlarni qamrab oluvchi tahlil (DEA) usulida baholash uslubiyoti taklif etilgan. 2024-yil ma’lumotlari asosida turizmning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va Xorazmda 4,3–5,4 foizni, respublika bo‘yicha 2,79 foizni tashkil etishi aniqlangan. Joylashtirish resurslaridan foydalanishning o‘rtacha samaradorligi 0,79 ga teng bo‘lib, mavjud xona fondida qo‘shimcha 537,2 ming kishini joylashtirish zaxirasi borligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm yordamchi hisobi, yalpi hududiy mahsulot, to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm yalpi qo‘shilgan qiymati, turizm salohiyati indeksi, obyektiv og‘irliklar, DEA, samaradorlik.*

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА РОЛИ ТУРИЗМА В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ РАЗМЕЩЕНИЯ

Жумаев Акбар Махмудович

доктор философии
по экономическим наукам (PhD)
доцент кафедры «Статистика»
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: jumayevabduakbar@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8935-032X15:49

Аннотация. *В статье рассматривается проблема невозможности оценить роль туризма в экономике регионов, поскольку показатели вспомогательного счета туризма в Узбекистане формируются только по республике. Для ее решения предложена методика распределения прямой туристской валовой добавленной стоимости по регионам на основе подхода «сверху вниз» через калибровочный коэффициент, определения доли туризма в валовом региональном продукте, расчета индекса туристского потенциала регионов с объективными весами на основе распределения данных и оценки эффективности использования ресурсов размещения методом анализа среды функционирования (DEA). По данным 2024 года установлено, что доля туризма в ВРП г. Ташкента, Самаркандской, Бухарской и Хорезмской областей составляет 4,3–5,4 %, по республике – 2,79 %. Средняя эффективность использования ресурсов размещения равна 0,79, а в имеющемся номерном фонде имеется резерв для размещения дополнительно 537,2 тыс. человек.*

Ключевые слова: *вспомогательный счет туризма, валовой региональный продукт, прямая туристская валовая добавленная стоимость, индекс туристского потенциала, объективные веса, DEA, эффективность.*

STATISTICAL ASSESSMENT OF THE ROLE OF TOURISM IN REGIONAL ECONOMIES AND THE EFFICIENCY OF ACCOMMODATION RESOURCE USE

Jumayev Akbar Makhmudovich

PhD in Economics
Associate Professor
Department of Statistics
Tashkent State University of Economics
E-mail: jumayevabduakbar@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8935-032X15:49

Abstract. *The article examines the problem that the role of tourism in regional economies cannot be assessed because Tourism Satellite Account indicators in Uzbekistan are compiled only at the national level. A methodology is proposed to allocate direct tourism gross value added to regions through a top-down calibration coefficient, to determine the share of tourism in gross regional product, to calculate a regional tourism potential index with objective data-driven weights, and to assess the efficiency of accommodation resource use by data envelopment analysis (DEA). Based on 2024 data, the share of tourism in gross regional product is 4.3–5.4% in Tashkent city, Samarkand, Bukhara and Khorezm, and 2.79% nationally. The average efficiency of accommodation resource use equals 0.79, and the existing room stock has a reserve to accommodate an additional 537.2 thousand guests.*

Keywords: *tourism satellite account, gross regional product, tourism direct gross value added, tourism potential index, objective weights, DEA, efficiency.*

Kirish

Turizmning iqtisodiyotga ta’sirini xalqaro miqyosda taqqoslanuvchan baholashning asosiy vositasi turizm yordamchi hisobi (TYoH) hisoblanadi [1]. O‘zbekistonda TYoH 2019-yildan boshlab yuritilmoqda [2, 3]: 2024-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm yalpi qo‘shilgan qiymati (YQQ) 37 248,9 mlrd so‘mni yoki YaIMning 2,4 foizini tashkil etgan [4]. Biroq TYoH jadvallarining birortasi ham hududlar kesimida shakllantirilmaydi. Natijada turizmning viloyatlar iqtisodiyotidagi o‘rni, hududlarning turizm salohiyati va resurslardan foydalanish samaradorligini rasmiy statistika asosida baholab bo‘lmaydi, holbuki mehmonxona qurilishi bo‘yicha investitsion qarorlar va hududiy turizm dasturlari aynan shu ko‘rsatkichlarni talab etadi.

Maqolaning maqsadi – to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQni hududlarga taqsimlash, turizmning yalpi hududiy mahsulotdagi (YHM) ulushini, hududlar turizm salohiyatini va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini yagona uslubiy asosda baholash.

Adabiyotlar sharhi

Hududiy TYoHni shakllantirishda xalqaro amaliyotda ikki yondashuv qo‘llaniladi. “Pastdan yuqoriga” yondashuvda har bir hudud uchun alohida so‘rovlar asosida hisob tuziladi, “yuqoridan pastga” yondashuvda esa milliy ko‘rsatkichlar hududiy indikatorlar yordamida taqsimlanadi [5]. Kanada va Avstraliyada hududiy TYoHlar muntazam e’lon qilinadi [6, 7]. D.Frechtling TYoHni turizmning iqtisodiy hissasini o‘lchashning eng ishonchli vositasi deb hisoblaydi [8], E.Smeral esa uning multiplikativ ta’sirlarni aks ettirmasligini tanqid qilgan [9]. L.Dvayer va hammualliflar turizmning iqtisodiy ta’sirini baholashning “eski” va “yangi” yondashuvlarini taqqoslagan [10], hududiy multiplikatorlar esa B.Archer va D.Frechtlingning ishlarida o‘rganilgan [11, 12]. Mahalliy tadqiqotlarda A.A.Mamadjanov O‘zbekiston uchun hududiy TYoHni “yuqoridan pastga” yondashuv asosida tuzishni tavsiya etgan [13, 14].

Kompleks indekslarni tuzishda og‘irliklarni aniqlash eng munozarali masala hisoblanadi. OECD qo‘llanmasida og‘irliklash usullari tizimlashtirilgan [15], M.Saisana va hammualliflar indekslarning og‘irliklarga sezgirligini baholash usullarini ishlab chiqqan [16]. Turizm indekslari bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlarda ma’lumotlarga asoslangan og‘irliklash keng qo‘llanilmoqda [17, 18].

Resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda ma’lumotlarni qamrab oluvchi tahlil (DEA) asosiy usullardan biri hisoblanadi. Uning asoslari A.Charnes, W.Cooper va E.Rhodes [19], miqyos samarasi o‘zgaruvchan bo‘lgan modeli esa R.Banker va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan [20, 21]. C.P.Barros mehmonxonalar samaradorligini [22], S.Hadad va hammualliflar mamlakatlar turizm sanoati samaradorligini DEA usulida baholagan [23], A.Assaf va A.Josiassen turizmda chegaraviy tahlil bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirgan [24]. Biroq O‘zbekiston hududlari bo‘yicha bunday baholash amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQ hududlarga kalibrlash koeffitsiyenti orqali taqsimlandi. Taqsimlash belgisi sifatida joylashtirish vositalaridan foydalanuvchi, ya’ni qarindoshlarni yo‘qlashdan boshqa maqsadlarda kelgan turistlarning hududiy soni olindi, chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQ asosan joylashtirish, ovqatlanish va transport xizmatlarida yaratiladi:

$$\lambda = \frac{YQQ}{\sum_{i=1}^{n} T_{N,i}}, \quad YQQ_i = \lambda \cdot T_{N,i} \tag{1}$$

$$s_i = \frac{YQQ_i}{YHM_i} \cdot 100 \tag{2}$$

bu yerda λ – boshqa maqsadlarda kelgan bir turistga to‘g‘ri keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQ; $T_{N,i}$ – i-hududga boshqa maqsadlarda kelgan turistlar; YHM_i – hududning yalpi hududiy mahsuloti. Viloyatlar turizm salohiyati indeksi (VTSI) to‘rt ko‘rsatkich asosida hisoblandi: 1000 aholiga turistlar soni, 100 ming aholiga mehmonxona xonalari, turizm YQQning YHMdagi ulushi va aholi jon boshiga yashash va ovqatlanish xizmatlari. Ko‘rsatkichlar min-maks usulida normallashtirildi, og‘irliklar esa ma’lumotlar taqsimotiga asoslangan obyektiv usulda aniqlandi:

$$e_k = -\frac{1}{\ln n}\sum_{i=1}^{n} p_{ik} \ln p_{ik}, \quad p_{ik} = \frac{z_{ik}}{\sum_{i=1}^{n} z_{ik}} \tag{3}$$

$$w_k = \frac{1-e_k}{\sum_{k=1}^{m}(1-e_k)}, \quad VTSI_i = 100 \cdot \sum_{k=1}^{m} w_k z_{ik} \tag{4}$$

bu yerda p_{ik} – normallashtirilgan ko‘rsatkichning hududlar bo‘yicha ulushi; e_k – ko‘rsatkichning bir xillik darajasi. Joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligi natijaga yo‘naltirilgan, miqyos samarasi o‘zgaruvchan bo‘lgan DEA (BCC) modeli bilan baholandi [20]:

$$\max \varphi: \ \sum_{j=1}^{n} \lambda_j x_{qj} \le x_{qo}, \ \sum_{j=1}^{n} \lambda_j y_j \ge \varphi y_o, \ \sum_{j=1}^{n} \lambda_j = 1, \ \lambda_j \ge 0$$
$$\theta_o = \frac{1}{\varphi^*} \tag{5}$$

bu yerda resurslar – xonalar va o‘rinlar soni, natija – joylashtirilganlar soni. Ma’lumotlar Milliy statistika qo‘mitasining ochiq ma’lumotlar portalidan olindi [25].

Tahlil va natijalar

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yilda kalibrlash koeffitsiyenti λ = 20,11 mln so‘m/kishiga teng bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich bir kiruvchi turistga to‘g‘ri keladigan kirish turizmi iste’molidan (4,28 mln so‘m) yuqori, chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQ ichki turistlar iste’molini ham o‘z ichiga oladi.

VTSI og‘irliklari quyidagicha shakllandi: 1000 aholiga turistlar soni – 0,409; mehmonxona xonalari – 0,326; turizmning YHMdagi ulushi – 0,164; yashash va ovqatlanish xizmatlari – 0,102. Barcha natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval.

Hududlar kesimida turizmning iqtisodiy ta’siri, salohiyati va resurslardan foydalanish samaradorligi, 2024-yil[1]

Hudud	Turizm YQQ, mlrd so‘m	YHMdagi ulushi, %	VTSI, ball	DEA samaradorlik (VRS)
Toshkent sh.	16 477,3	5,44	100,0	1,00
Samarqand	5 571,5	5,36	37,1	0,72
Buxoro	3 475,7	4,73	40,9	0,74
Xorazm	2 305,1	4,30	30,2	0,81
Surxondaryo	1 190,7	2,11	7,9	0,82
Jizzax	862,9	1,98	10,4	1,00
Sirdaryo	440,5	1,54	8,2	1,00
Toshkent vil.	1 953,1	1,29	10,5	0,88
Namangan	862,9	1,20	7,1	1,00
Farg‘ona	1 056,0	1,13	5,5	0,57
Qashqadaryo	927,3	1,10	5,3	0,67
Qoraqalpog‘iston	498,8	1,08	6,2	0,58
Andijon	999,7	1,07	4,3	0,69
Navoiy	627,6	0,48	11,9	0,54
Respublika	37 248,9	2,79	–	0,79

Izoh: respublika bo‘yicha ulush viloyatlar YHMlari yig‘indisiga nisbatan hisoblangan; DEA ustunida o‘rtacha qiymat keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turizmning YHMdagi ulushi Toshkent shahri (5,44%), Samarqand (5,36%), Buxoro (4,73%) va Xorazm (4,30%) viloyatlarida respublika o‘rtachasidan (2,79%) ancha yuqori, Navoiy viloyatida esa eng past (0,48%), chunki uning iqtisodiyotida tog‘-kon sanoati ustunlik qiladi. VTSI bo‘yicha Toshkent shahridan keyingi o‘rinlarni Buxoro (40,9), Samarqand (37,1) va Xorazm (30,2) egallaydi. DEA natijalariga ko‘ra, o‘rtacha samaradorlik 0,79 ni tashkil etadi: Jizzax, Sirdaryo, Namangan va Toshkent shahri samaradorlik chegarasida, Navoiy (0,54), Farg‘ona (0,57) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (0,58) esa eng past darajada joylashgan.

Barcha hududlar samaradorlik chegarasiga yetganda mavjud xona fondida qo‘shimcha 537,2 ming kishini (+18,8%) joylashtirish mumkin, uning eng katta qismi Samarqand (163,3 ming), Buxoro (91,5 ming) va Farg‘ona (60,8 ming) viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Miqyos samaradorligi barcha hududlarda 0,96 dan yuqori, demak samarasizlikning asosiy manbai xona fondining hajmi emas, balki undan foydalanishni tashkil etish – marketing va mavsumiylikni yumshatish hisoblanadi. Bu natija C.P.Barrosning Portugaliya mehmonxonalari bo‘yicha samarasizlik asosan boshqaruv bilan bog‘liq degan xulosasiga [22] mos keladi. Shuningdek, natijalar turizmga eng ko‘p bog‘liq hududlar har doim ham resurslardan eng samarali foydalanayotgan hududlar emasligini ko‘rsatadi: yuqori salohiyatli Samarqand va Buxoroda xona fondidan foydalanish o‘rtacha darajadan past.

Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, taklif etilgan uslub qo‘shimcha kuzatuvlarsiz, mavjud rasmiy ma’lumotlar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQni hududlarga taqsimlash va turizmning YHMdagi ulushini aniqlash imkonini beradi, natijalar esa milliy hisoblar tizimi bilan to‘liq muvofiqlashadi. Ikkinchidan, obyektiv og‘irliklar asosidagi

[1] Muallif hisob-kitoblari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida).

VTSI hududlarni turizm salohiyati bo‘yicha takrorlanadigan va tekshiriladigan tarzda reytinglash imkonini beradi. Uchinchidan, DEA natijalari joylashtirish resurslaridan foydalanishda katta zaxira mavjudligini ko‘rsatdi.

Turizm qo‘mitasi va hududiy hokimliklarga investitsiyalarni yangi xona fondi qurilishidan ko‘ra mavjud resurslardan foydalanish darajasini oshirishga yo‘naltirish, past samaradorlikka ega hududlarda mavsumiylikni yumshatish va qolish muddatini uzaytirish choralarini ustuvor belgilash tavsiya etiladi. Milliy statistika qo‘mitasiga esa hududiy TYoHni taklif etilgan uslub asosida bosqichma-bosqich shakllantirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations, World Tourism Organization, Eurostat, OECD. Tourism Satellite Account: Recommended Methodological Framework 2008. – Luxembourg, Madrid, New York, Paris, 2010. – (Studies in Methods, Series F, No. 80/Rev.1).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy hisoblarning zamonaviy tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 691-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 41-son qarori. – URL: https://lib.stat.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda turizm va dam olishning rivojlanishi 2025-yil uchun: press-reliz. – Toshkent, 2026. – URL: https://stat.uz

5. World Tourism Organization. A Closer Look at Tourism: Sub-national Measurement and Analysis – Towards a Set of UNWTO Guidelines. – Madrid: UNWTO, 2013.

6. Statistics Canada. Provincial and Territorial Tourism Satellite Account; National tourism indicators; Table 36-10-0233-01. – URL: https://www150.statcan.gc.ca

7. Tourism Research Australia. State and Regional Tourism Satellite Accounts 2024–25. – URL: https://www.tra.gov.au

8. Frechtling D.C. The tourism satellite account: A primer // Annals of Tourism Research. – 2010. – Vol. 37, No. 1. – P. 136–153.

9. Smeral E. Tourism satellite accounts: A critical assessment // Journal of Travel Research. – 2006. – Vol. 45, No. 1. – P. 92–98.

10. Dwyer L., Forsyth P., Spurr R. Evaluating tourism’s economic effects: new and old approaches // Tourism Management. – 2004. – Vol. 25, No. 3. – P. 307–317.

11. Archer B. The value of multipliers and their policy implications // Tourism Management. – 1982. – Vol. 3, No. 4. – P. 236–241.

12. Frechtling D.C., Horváth E. Estimating the multiplier effects of tourism expenditures on a local economy through a regional input-output model // Journal of Travel Research. – 1999. – Vol. 37, No. 4. – P. 324–332.

13. Mamadjanov A.A. O‘zbekiston milliy hisoblar tizimida turizm yordamchi hisobini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: TDIU, 2022. – 156 b.

14. Mamadjanov A.A. O‘zbekistonda turizm yordamchi hisobi jadvallarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2021. – № 1. – B. 248–253.

15. OECD, JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008.

16. Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Uncertainty and sensitivity analysis techniques as tools for the quality assessment of composite indicators // Journal of the Royal Statistical Society: Series A. – 2005. – Vol. 168, No. 2. – P. 307–323.

17. Barua H., Acharjee M.R., Talukder A. Tourism index evaluation of exposed coast, Bangladesh: A modeling approach // Heliyon. – 2024. – Vol. 10. – e34745.

18. Berbekova A., Assaf A.G., Uysal M., Tsionas M., Parmeter C.F. Quality of life performance index for tourism destinations // Tourism Management. – 2025. – Vol. 108. – 105091.
19. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. Measuring the efficiency of decision making units // European Journal of Operational Research. – 1978. – Vol. 2, No. 6. – P. 429–444.
20. Banker R.D., Charnes A., Cooper W.W. Some models for estimating technical and scale inefficiencies in data envelopment analysis // Management Science. – 1984. – Vol. 30, No. 9. – P. 1078–1092.
21. Cooper W.W., Seiford L.M., Tone K. Data Envelopment Analysis: A Comprehensive Text with Models, Applications, References and DEA-Solver Software. 2nd ed. – New York: Springer, 2007.
22. Barros C.P. Measuring efficiency in the hotel sector // Annals of Tourism Research. – 2005. – Vol. 32, No. 2. – P. 456–477.
23. Hadad S., Hadad Y., Malul M., Rosenboim M. The economic efficiency of the tourism industry: A global comparison // Tourism Economics. – 2012. – Vol. 18, No. 5. – P. 931–940.
24. Assaf A.G., Josiassen A. Frontier analysis: A state-of-the-art review and meta-analysis // Journal of Travel Research. – 2016. – Vol. 55, No. 5. – P. 612–627.
25. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti va ochiq ma’lumotlar portali. – URL: https://stat.uz